

KIMYO 8-SINF 41-44&

	SAVOL	JAVOB
1	P_2O_5 ning suvda erishidan oddiy sharoitda qaysi kislota hosil bo'ladi?	HPO_3 – metafosfat kislota
2	P_2O_5 ni suvli eritmasini qizdirish bilan qaysi kislota olish mumkin?	H_3PO_4 - ortofosfat kislota
3	Ortofosfat kislota ohista qizdirilsa qaysi kislota hosil bo'ladi?	$H_4P_2O_7$ - pirofosfat kislota
4	Ag_3PO_4 cho'kmasi qanday rangga ega?	Sariq
5	A.Yu.Fersman fosforning ahamiyatini yuqori baholab, uni nima deb atagan?	"Hayot va tafakkur elementi"
6	Odam va hayvonlar suyak to'qimalarining anorganik tarkibiy qismini qaysi tuz tashkil etadi?	$Ca_3(PO_4)_2$
7	Tirik organizmdagi energiya almashinuvi fosforning qaysi birikmasi tomonidan amalga oshiriladi?	Adenozintrifosfat (ATF)
8	Odamda bir kunlik fosfor sarfi qancha miqdorni tashkil etadi?	Taxminan 1600 mg
9	Odamlar fosforga bo'lgan ehtiyojini qaysi mahsulotlardan oladi?	O'simliklar, chorva va parranda mahsulotlaridan
10	Inson organizmida o'rtacha qancha miqdorda fosfor bo'ladi?	1,5 kg
11	Tish emalida fosforning qaysi birikmasi uchraydi?	$Ca_5(PO_4)_3F$
12	Fosforni birinchi marotaba qaysi olim kashf etgan?	1669- yilda X.Brendt
13	1676- yilda I.Kunkel oq fosforni qaysi usul bilan olgan?	1) $NaNH_4HPO_4 \rightarrow NaPO_3 + NH_3 + H_2O$ 2) $2NaPO_3 + SiO_2 \rightarrow Na_2SiO_3 + P_2O_5$ 3) $2P_2O_5 + 10C \rightarrow P_4 + 10CO$
14	1680- yilda qaysi olim I.Kunkel qo'llagan usul bilan oq fosforni sintez qiladi?	R.Boyl
15	Qaysi olim 1847- yilda oq fosforni havosiz joyda $300^\circ C$ da qizdirib qizil fosforni sintez qiladi?	A.Shretter
16	Qaysi olim 1934- yilda fosforni uchinchi allotropiyasi qora fosforni oladi?	P.Bridjmen
17	Qaysi elementlar makroelement hisoblanadi?	C, O, H, N, P, S, Mg, K, Ca
18	Qaysi elementlar mikroelementlar hisoblanadi?	Fe, Mn, B, Cu, Zn, Mo, Co
19	O'simliklarda qaysi modda yetishmaganda uning o'sishi kechikadi, barglari och-yashil bo'lib qoladi, hatto sarg'ayib ketadi. Fotosintez jarayoni buziladi?	Azot
20	Qaysi olim agrokimyo faniga asos solgan, o'simliklarning mineral oziqlanish nazariyasini taklif etgan, tuproqqa mineral o'g'itlar solish yo'li bilan madaniy o'simliklar hosildorligini oshirishga doir tavsiyanomalar bergan	Yu.Libix
21	Qaysi element o'simliklarda sodir bo'ladigan fotosintez jarayonini tezlashtiradi. Uglevodlarning to'planishini jadallashtiradi, eng muhimi o'simlik poyasini mustahkamlaydi?	Kaliy
22	Temir o'simlikda qaysi moddalarni o'zlashtirilishini tezlashtiradi?	Azot, fosfor va kaliy
23	Qaysi elementlar o'simlikda sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini tezlashtiradi?	Mis, rux va marganes
24	O'simliklar makro va mikroelementlarni qanday	Ionlar ko'rinishida

	ko'rinishda o'zlashtiradi?	
25	Tuproq eritmasida ionlarga (NH_4^+ , NO_3^- , H_2PO_4^- , K^+) ajraluvchi moddalar nima deb ataladi?	Mineral o'g'itlar
26	Qaysi olim Qoraqat fosfatlari asosida superfosfatlar olish texnologiyasini ishlab chiqqan. Kam zaharli defoliantlar ishlab chiqarish ustida qator tadqiqotlar olib borgan?	M.N. Nabiyeu
27	Mineral o'g'itlarni tarkibidagi ozuqa elementlari (N, K_2O , P_2O_5) ning mavjudligiga qarab qanday guruhlarga bo'linadi?	Oddiy va kompleks o'g'itlar
28	Oddiy o'g'itlar tarkibida necha xil ozuqa elementi bo'ladi?	Bir xil
29	Kompleks o'g'itlar tarkibida necha xil ozuqa elementi bo'ladi?	Ikki yoki uch xil
30	"Agro" so'zining ma'nosi nima?	"Dala"
31	Qaysi olim "Kimyoning dehqonchilikka tadbiri" kitobida o'simliklarning oziqlanishi uchun N, P, K elementlarini tutgan tuzlar va shuningdek, boshqa elementlar tutgan moddalar zarur ekanligini tushuntirib bergan?	1840- yilda nemis kimyogari Yu.Libix
32	Murakkab tarkibli, doimo o'zgarib turuvchi tuzilma nima deb ataladi?	Tuproq
33	Natriy nitrat (natriyli selitra) ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 15—16%, agregat holati— oq, kulrang, gigroskopik modda. Suvda yaxshi eriydi
34	Kaliy nitrat (kaliyli selitra) ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 12—13%, agregat holati—oq, kristall modda. Suvda yaxshi eriydi
35	Ammoniy nitrat (ammiakli selitra) ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 30—35%, agregat holati— oq rangli kristall. Juda gigroskopik modda
36	Ammoniy sulfatning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 20—21%, agregat holati—kulrang yoki och-yashil rangli kukun. Gigroskopik modda
37	Karbamid (mochevina) ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 46%, agregat holati—oq rangli donador. Gigroskopik modda
38	Oddiy superfosfat [$\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} \cdot \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$] ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 20%, agregat holati—kulrang, mayda donador kukun
39	Qo'sh superfosfat [$\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$] ning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 40%, agregat holati— kulrang, mayda donador kukun
40	Kaliy xloridning ozuqa miqdori (%) va agregat holati qanday bo'ladi?	Ozuqa miqdori 52—60%, agregat holati—oq mayda kristall modda
41	Ammoniy digidrofosfatning agregat holati qanday bo'ladi?	Oq kristall modda
42	Ammoniy gidrofosfatning agregat holati qanday bo'ladi?	Oq kristall modda (Aralashmalari tufayli kulrang bo'ladi)
43	Fosforit talqonining formulasi qanday?	$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$
44	Fosforit talqoni qanday tuproqlarga solinadi?	Bo'z va torfli tuproqlarga
45	Oddiy superfosfat qaysi usul bilan olinadi?	Apatit yoki fosforitga sulfat kislotaga ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi:

		$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 + 2\text{CaSO}_4$
46	Qaysi o'g'it har qanday muhitdagi tuproqlarda o'sadigan o'simliklar uchun qo'llaniladi?	Oddiy superfosfat
47	Oddiy superfosfatda qancha (%) P_2O_5 bo'ladi?	14—20 %
48	Qaysi o'g'it konsentrlangan fosforli mineral o'g'it hisoblanadi?	Qo'sh superfosfat va pretsipitat
49	Qo'sh superfosfatda qancha (%) P_2O_5 bo'ladi?	40—50 %
50	Pretsipitatning formulasi qanday?	$\text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$
51	Peritsipitatda qancha (%) P_2O_5 bo'ladi?	30—35 %
52	Ammofos nima?	$\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ va $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ lar aralashmasi
53	Qaysi o'g'it fosforli o'g'itlar ichida eng ko'p ishlatiladi?	Ammofos
54	Silvinitning formulasi qanday?	$\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$
55	Kainitning formulasi qanday?	$\text{MgSO}_4 \cdot \text{KCl} \cdot 3\text{H}_2\text{O}$
56	Kaliy xloridli o'g'it tarkibida qancha (%) K_2O — ozuqa elementi bo'ladi?	52—60 %
57	Kaliy nitrat — KNO_3 o'g'iti tarkibida K_2O dan tashqari qancha (%) azot bor?	12—13 %
58	“Potash” ning formulasi qanday?	K_2CO_3
59	Yer po'stlog'ining 98 foizi asosan qaysi elementlardan tashkil topgan?	8 ta element: O, Si, Al, Fe, Ca, Na, K, Mn
60	O'simliklarning 99,1 % to'qimalarini qaysi elementlar tashkil etadi?	O, C, H, Na, K, Ca, Si
61	Inson tanasining 99,4 foizini qaysi elementlar tashkil etadi?	H, O, C, N, Ca
62	Qaysi elementlar tirik organizmda 0,01 % dan kam miqdorda uchraydi va ular mikrobiogen elementlar deb ataladi?	10 ta element: Fe, Mn, Co, Cu, Mo, Zn, F, Br, I, B
63	Tarkibida temir saqllovchi “ferrostimulator”lar qaysi olimlar tomonidan ixtiro qilingan?	I.R.Asqarov va Sh. M.Qirgizov
64	Qaysi elementlar fotosintez jarayonining, borishiga, o'simliklarning o'sishi va urug'larining yetilishida muhim ahamiyatga ega. Ular yana tashqi muhitning zararli ta'sirlariga chidamlilikni oshiradi, bir qator bakteriya va zamburug' kasalliklariga (kanop bakteriozi, lavlagi o'zagining chirishi, donli o'simliklardagi kulrang dog'lar) nisbatan barqarorligini ta'minlaydi?	Marganes, mis, molibden va bor
65	Organizmdagi barcha kalsiyning qancha (%) qismi suyakda qancha (%) qismi qon va limfada uchraydi?	Suyakda 99%, qon va limfada 1%
66	Qaysi modda suyak, qon, o'sma va boshqa xastaliklar bilan og'rigan bemorlar organizmining himoya quvvatini oshirishda samarali foyda beradi?	“Askalsiy”
67	Qaysi biogen elementdan quritilgan botqoq yerlar, qumloq va mis deyarli uchramaydigan yerlarda don hosildorligini ko'paytirishda, teri pigmentatsiyasida, Fe ning o'zlashtirilishida foydalaniladi?	Mis
68	Molibdenli mikroo'g'itlar qandavlagi hosildorligini qancha (%) ga oshiradi?	20%
69	Molibdenli mikroo'g'itlar zig'irning hosildorligini	25%

	qancha (%) ga oshiradi?	
70	Molibdenli mikroo'g'it mineral o'g'itlar bilan tegishli miqdorda qo'shib ishlatilganda kuzgi bug'doy hosildorligi qancha (%) ortadi?	37 %
71	Molibdenli mikroo'g'it mineral o'g'itlar bilan tegishli miqdorda qo'shib ishlatilganda paxta hosildorligi gektariga qancha ortadi?	7 sentnergacha
72	Qaysi biogen element oliy nerv faoliyatining normal kechishi uchun javob beruvchi element hisoblanadi?	Brom
73	Qaysi biogen element organizmlarning normal o'sishi, jinsiy yetilishi uchun zarur hisoblanadi?	Yod
74	Tishlarning nuray boshlashiga tish tarkibidagi qaysi biogen elementning kamayishi sabab bo'ladi?	Ftor
75	Oltin, platina, molibden, volfram kabi qimmatbaho metallarni chiqindilardan ajratib olish texnologiyasi kim tomonidan ishlab chiqilgan?	X.T.Sharipov